

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KOBILOVA NASIBA XURRAMOVNA

**QAYTA ISHLASH SANOATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ASOSIDA
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Kobilova Nasiba Xurramovna

Qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash 3

Кобилова Насиба Хуррамовна

Обеспечение продовольственной безопасности на основе повышения эффективности перерабатывающей промышленности..... 27

Kobilova Nasiba Khurramovna

Ensuring Food Security Through Enhancing the Efficiency of the Processing Industry 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KOBILOVA NASIBA XURRAMOVNA

**QAYTA ISHLASH SANOATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ASOSIDA
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Iqt3973 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalı (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarova Fotima Xakimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismoilov Azizbek Ruzimaxamatovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamlı Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olinagan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “____” _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Qo‘chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Jahonda oziq-ovqat va iste'mol tendensiyalari o'rtasida nomutonosib-lik oshib bormoqda. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi (global iste'mol hajmi 2,5 mlrd. t.¹) va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining o'sish darajasining pastligi, inflyatsiyaning oziq-ovqat xarajatlariga ta'siri, iqlim o'zgarishlari va ishsizlik muammolari tufayli hozirda dunyoda 690-780 million insonlar ochlikka duch kelmoqda². Ushbu to'yib ovqatlanmaydigan odamlar sonining 55 foizi Osiyo, 38 foizi Afrika, 6 foizi Lotin Amerikasi va Karib dengizi va qolgan qismi Shimoliy Amerika va Yevropa hamda Okeaniya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi³. Jahonda kuzatilayotgan oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etish va uning xavfsizligini barqaror ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – oziq ovqat sanoatini rivojlantirishdir. Shuningdek, bu sanoatga asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning intensiv samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. FAO va WFP 22 mamlakatdagi 18 ta ochlik nuqtalarida oziq-ovqat xavfsizligi yanada yomonlashishi mumkinligidan ogohlantirmoqda⁴. Bu esa jahon bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash choralarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ham oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 2024 yilda respublika bo'yicha sanoat asosida 102732,6 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari va 24118,1 mlrd. so'm ichimliklar ishlab chiqarilgan hamda 439948 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsada, shu davrda 2247 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlarini import qilib, 7094,8 mlrd. so'm oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilingan⁵. Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatimizda nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mustaqilligiga erishish, balki oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik eksportyor davlatga aylanish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa mavjud oziq-ovqat resurslaridan samarali foydalanish, ya'ni sanoat asosida qayta ishlashni jadallashtirish lozim.

Keyingi davrda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish masalalari bo'yicha jadal islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari sifatida 47-maqсад: mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishslash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, 54-maqсадда qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash kabi bir qator vazifalar belgilangan⁶. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash,

¹ <https://www.statista.com/forecasts/1298375/volume-food-consumption-worldwide>

² FAO data. https://www.fao.org/3/cc8166en/online/cc8166en.html#chapter-3_1

³ FAO. 2023. Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari to'plami. In:FAOSTAT. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/FS>

⁴ World Bank, Food Security update. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/40ebbf38f5a6b68bfc11e5273e1405d4-0090012022/related/Food-Security-Update-LXXXVI-June-1-2023.pdf>

⁵ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika>

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармони, 11.09.2023 йил. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

shuningdek qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni jadallashtirish, mazkur sohani yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish va tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son, 2023-yil 28-dekabrdagi "Iste'mol bozorlarida asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-217-son farmonlari, shuningdek 2021-yil 22-dekabrdagi "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-58-son, 2020-yil 9-sentabrdagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlanishining hamda aholini sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-471-son, 2020-yil 18-martdagi "Agrar va oziq-ovqat sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4643-son, 2019-yil 29-iyuldagagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlanishish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4406-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli meyoriy-huhuqiy xujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlanishish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlanishish va oziq-ovqat zanjiri tarmoqlarini takomillashtirish borasida xorijiy iqtisodchi olimlardan Ramful K., Jallow F., Kaferstein F., Abdussalam M., Karanina E.V., Selezneva E.Y., Davidek J., Dabija A., Matthew N., Sarhan M., Tolulope J., Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K., Shmidt Yu.D., Gu E., Sandu I.S., Nechaev V.I., Voiku I.P., Burfoot A.lar⁷ ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

⁷ Khemraj Ramful and Fatou Jallow. Food Safety and Good Hygienic Practices. International Trade Centre, Geneva, Switzerland, October 2017. P.3; Kaferstein F, Abdussalam M. Food safety in the 21st century. Bulletin of the World Health Organization. 1999. 77(4):347-351.; Karanina E.V., Selezneva E.Y. Quality Assurance of Food Raw Materials and Food Products as the Main Factor of Safety of the Consumer Market. Listeria Monocytogenes. August 2018; Davidek J. Quality Control of Raw Materials // Food Quality and Standards – Vol. II.; Dabija A. at al. Studies on the Manufacturing of Food Products Using Unconventional Raw Materials // Applied Sciences. 2023, 13, 7990.; Matthew N. O. Sadiku | Sarhan M. Musa | Tolulope J. Ashaolu "Food Industry: An Introduction" Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN: 2456-6470, Volume-3 | Issue-4, June 2019, pp.128-130; Wedowati E.R., Singgih M.L., Gunarta I.K. Production system in food industry: a literature study // 6th International Conference on Operations and Supply Chain Management, Bali, 2014. P.274; Shmidt Yu.D., Gu E. Structural Changes in The Food Industry of Primorsky Krai // Russian Journal of Entrepreneurship. N7/2017 (April), p.1180-1181; Sandu I.S., Nechaev V.I., Voiku I.P. State support for the digital transformation of agriculture in the region: a methodological approach // Economics of agricultural and processing enterprises. – 2019. – №12. – P.66-70.; Burfoot A. It's trendy to scorn processed food. Now there's research to back up that attitude. The Washington Post, 2019, June 24: n.p.

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha Mustaqil davlatlar xamdo'stligi (MDX) mamlakatlari iqdisodchi olimlaridan Chichikin A.A., Sardak S.E., Ogdanskiy K.N., Trifonova O.D., Gnatovskaya Y.S., Rejepov B., Rastorguyev P.V., Goncharov V.D., Sheremetyeva YE.N., Frolova A.K., Shetinin YE.I., Nazrullayeva YE.Y., Jukova Y.S., Gusakova I. . kabilar⁸ tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash, oziq-ovqat mahsulotlari importini qisqartirish va eksportini oshirish masalarari Berkinov B.B., Maxmudov N., Ziyaudinova N., Abduganiyev O.A., Abulkosimov X.P., Bekenov S.S., Mamaraximov B.E., Kobilov Sh.R., Saidova D.N., Rasulov T.S., Rustamova I.B., Nazarova F., Muxtorov A., Saidaxmedova N.I., Umarov I.Y. kabi olimlar⁹ ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy tadqiqotlarda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va mustaqilligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjiri tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo'yicha muammolar atroflicha ko'rib chiqilgan. Ammo, aynan qayta ishslash sanoati

⁸ Чичикин А.А. Пищевая промышленность в системе обеспечения продовольственной безопасности. Автореферат Дисс. к.э.н., М.: РАНИЭ. – 2009г.; Сардак С.Э., Огданский К.Н., Трифонова О.Д. Глобальная и региональная продовольственная безопасность: концепт, факторы, организационно-экономические решения // Економіка і суспільство. № 17, 2018. С.53-54.; Гнатовская Ю.С. Совершенствование государственного регулирования пищевой промышленности (на примере Хабаровского Края). Автореферат Дисс. к.э.н., Х.: ХГФЭП. – 2009г. С.6; Rejepov B. The Role Of The Food Industry In Achieving The Sustainable Development Of The Country // "Ceteris Paribus" Vol.11, 2022 у. Р.24; Растиргуев П.В. Особенности формирования систем контроля качества и безопасности продукции АПК в отдельных странах. Экономические вопросы развития сельского хозяйства Беларуси. 2013. 1(41), с.159-170.; Гончаров В.Д. Пищевая промышленность в системе обеспечения продовольственной безопасности России // Журнал Никоновские чтения. 2009. С.35; Шереметьева Е.Н., Фролова А.К. Особенности управления развитием бизнеса в отраслях пищевой промышленности // МЦНП "Новая наука". 2022. С.118; Щетинин Е.И., Назрullaева Е.Ю. Производственный процесс в пищевой промышленности: взаимосвязь инвестиций в основной капитал и технической эффективности // Прикладная Эконометрика. №4(28)2012. с.64; Жукова Ю.С. Учет особенностей пищевой промышленности в процессе бизнес-планирования // Вестник Вятского ГАТУ. №2, 2019. С.4.; Гусакова И. Диагностика функционирования агропродовольственной сферы Республики Беларусь с позиции обеспечения продовольственной безопасности // Аграрная экономика. – 2019. – № 6. – С. 18–30.

⁹ Беркинов Б.Б., Ахмедов У.К. Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили.; Махмудов Н. (2020). Перспективы развития экспорта пищевой промышленности в Узбекистане. Экономика И Образование, 1(6), 19–23.; Абдуганиев О.А. Минтақанинг озиқ-овқат билан таъминланганлигини баҳолаш усуслари ва мезонлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №3. Май июнь 2018 йил: Абулкосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув кўлланма. – Т.: Akademiya, 2012.; Абулкосимов Х.П., Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йуналишлари. Монография. – Т.: "Fan va texnologiya", 2017. – 152 б.; Бекенов С.С. Критерии и оценки продовольственной безопасности // Вестник КРС №2. 2003.; Мамарахимов Б.Э. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва саноатини ривожлантириш // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №5, сентябрь-октябрь 2016 йил; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув кўлланма. – Т.: УзФА Асосий кутубхонаси босмахонаси нашриёти, 2016. – 258 б.; Сандова Д.Н., Расурова Д.Т. Проблемы обеспечения продовольственной безопасности в Республике Узбекистан // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. – Т., ТошДАУ, 2015. 2-сон. 91-94-б.; Назарова Ф. Иқтисоднётни эркинлаштириш шаронтида Ўзбекистон аграр секторини ривожлантириши истиқболлари. и.ф.д., дисс. – Т.: 261 б.; Мухторов А.Х. ва бошқ. Иқтисоднётни глобаллашуви шароитида аграр соҳани ривожлантиришнинг назарий асослари. Т.: "Fan va texnologiya", 2016, – 280 бет.; Saidaxmedova N.I. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб масалалари // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 2018, 4. 13-б.; Умаров И.Ю. Пути повышения эффективности предпринимательской деятельности в повышении конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности // Региональные проблемы преобразования экономики, №1, 2019. С.30.

samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi alohida obyekt sifatida tadqiq etilmagan, shu sababli mazkur masala tadqiqt mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqt mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lif muassasasining ilmiy-tadqiqt ishlari rejali bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqt Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqt ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqtning maqsadi qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqtning vazifalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat xavfsizligining asosiy elementlari va uni ta'minlashda oziq-ovqat sanoatining rolini nazariy jihatdan ko'rib chiqish;

oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va omillarini aniqlash hamda ularning o'zaro aloqalaridan kelib chiqib oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi rolini aniqlash;

qayta ishslash sanoati asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitida ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qayta ishslash sanoatining roli va samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda baholash;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eksport-import mahsulotlarining rolini yoritib berish va uni tahlil qilish asosida eksport hajmini oshirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish;

qayta ishslash sanoati asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq mavjud muammolarni aniqlash va ularni yechish bo'yicha takliflar berish;

oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash istiqbollari va proqnoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqtning obyekti sifatida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zanjiri iqtisodiy faoliyati tanlangan.

Tadqiqtning predmeti qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqtning usullari. Tadqiqt ishida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, ekspert baholash, taqqoslama tahlil, jadval, grafik, statistik tahlil va sintez, statistik kuzatuv, dinamika qatorlari, proqnozlash, iqtisodiy-matematik usullar va ekonometrik modellar kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqtning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat mahsulotlari sanoatining "ishlab chiqarishning o'sish" va "qo'shimcha o'sish" omillaridan optimal foydalanish orqali samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nazariy jihatdan asoslangan;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish xususiyatlari va omillari integratsiyasini ichiga oluvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

subyektiv, boshqaruv, obyektiv omillar va natijaviy jarayonlar integratsiyasini ifodalovchi oziq-ovqat mahsulotlari sanoati klasterlarini innovatsion rivojlantirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash modeli ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli (2025-2030 yillarga mo'ljallangan) prognoz senariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirish xususiyatlari va omillari o'rganilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qayta ishlash sanoatining roli va uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari statistik usullar asosida baholab berilgan;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eksport-import mahsulotlarining roli ohib berilgan va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va eksportini oshirish borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

2025-2030 yillarga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini ifodalovchi prognoz ko'rsatkichlar ssenariylari ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ishiga doir xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida tayyorlanganligi hamda foydalanilgan ma'lumotlar ishonchli rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha meyoriy-huquqiy asoslari va oziq-ovqat mahsulotlari sanoatini samarali tashkil etishda hamda ushbu sohadagi kelgusi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari sanoatining samaradorligini yanada oshirish, uni rivojlantirishning innovatsion va ilmiy metodologik yondoshuvlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy jihatdan yechimlari hamda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olingen ilmiy natijalar asosida:

oziq-ovqat mahsulotlari sanoatining "ishlab chiqarishning o'sish" va "qo'shimcha o'sish" omillaridan optimal foydalanish orqali samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi

sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi faoliyatiga joriy etilgan (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining 2025-yil 14-fevraldagagi 57/10-309-sonli malumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish foydalanilgan va omilli tahlil natijalari aniqlilik darajasining 2,7 foizga oshishiga olib kelgan;

oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish xususiyatlari va omillari integratsiyasini ichiga oluvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi faoliyatiga joriy etilgan (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining 2025-yil 14-fevraldagagi 57/10-309-sonli malumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati korxonalarini faoliyati samaradorligini 1,3 foizga oshishiga erishilgan;

subyektiv, boshqaruv, obyektiv omillar va natijaviy jarayonlar integratsiyasini ifodalovchi oziq-ovqat mahsulotlari sanoati klasterlarini innovatsion rivojlantirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash modeli O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi faoliyatiga joriy etilgan (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining 2025-yil 14-fevraldagagi 57/10-309-sonli malumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida qayta ishslash sanoati samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda omillar ta’sirini hisobga olish hamda funksional vazifalarni samarali tashkillashtirish amaliyotining takomillashuviga erishilgan;

oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtal muddatli (2025-2030 yil) prognoz ssenariylari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi faoliyatiga joriy etilgan (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazining 2025-yil 14-fevraldagagi 57/10-309-sonli malumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha istiqbolli parametrlarni ishlab chiqilishida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Qayta ishlash sanoati asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy va amaliy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida oziq-ovqat xavfsizligini qayta ishlash sanoati asosida ta’minlashning nazariy asoslari yoritilib, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati samaradorligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va omillari o‘rganilgan. Shuningdek, qayta ishlash sanoati asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajribalar o‘rganilib, ulardan samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

BMT ma’lumotiga ko‘ra, 2024 yilda dunyo aholisi soni 8,2 mld. kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu 2050 yilda 9,7 mld. kishi va 2100 yilga borib esa 10,4 mld. kishiga yetishi mumkin¹⁰. Dunyo aholisining bundan o‘sishi va keyingi davrda yuzaga kelayotgan global iqlim o‘zgarishi oziq-ovqat ta’mnoti zanjiriga, jumladan oziq-ovqat xavfsizligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning “Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tajriba shkalasi” (FIES) bo‘yicha tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 2,4 mld. nafar odamlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta’minlanmagan¹¹. Ko‘p yillar davomida FAO dunyoda ochlik darajasini “To‘yib ovqatlanmaslik” (PoU) ko‘rsatkichidan foydalangan holda baholab keladi. Baholash natijalariga ko‘ra, hozirda qariyb 735 mln. odamlar ocharchilik muammosiga uchragan. Shu boisdan FAONing 2030 yilga qadar barqaror rivojlanish kun tartibiga (SDG Indicator 2.1.1) “PoU” ko‘rsatkichini nol darajaga tushirish kiritilgan. Fikrimizcha, oziq-ovqat xavfsizligi uch yo‘nalishga bo‘lib, quyidagicha talqin qilish mumkin:

1. Iqtisodiy xavf, ya’ni, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi yoki unga bo‘lgan talabning to‘liq qondirilmamasligi;

2. Texnik jihatdan xavf, ya’ni, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidan xavfsiz kimyoviy moddalardan foydalanish, ruxsat etilgan meyorlarga amal qilish va saqlash bilan bog‘liq masalalar;

3. Gigiyenik jihatdan xavf, ya’ni, oziq-ovqat mahsulotlari iste’molidan kelib chiqadigan inson sog‘lig‘i bilan bog‘liq xavf (oziq-ovqatdan yuqadigan turli kasalliklar)dir.


Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli va murakkab jarayon bo‘lib, uni quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

Oziq-ovqat sanoatining asosiy maqsadi ham jamiyatning sifat va mahsulot xavfsizligi bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlariga

¹⁰ <https://population.un.org/wpp/>

¹¹ <https://www.fao.org/interactive/state-of-food-security-nutrition/en/>

bo‘lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdan iboratdir. Shuningdek, bugungi globallashuv oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasini oshirish uchun ajralmas bo‘lgan valyuta (investitsiya)ni olish imkoniyatini ham bermoqda. O‘z navbatida, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi aholi daromadlari darajasiga, ishlab chiqaruvchilarining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari va sharoitlariga bog‘liq.



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligi jarayoni va unda sanoatning roli¹²


Albatta, yuqoridaagi rasmda keltirilgan iqtisodiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati va oziq-ovqat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi jarayonlardan boshqa omillar ham mavjud. Jumladan, fan-teknika taraqqiyoti, investitsiya, kadrlar salohiyati, oziq-ovqat xom ashyosi bazasi kabilarni keltirish mumkin. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarining ijobjiy barqaror tendensiyada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha davlat tomonidan tartibga solish choralarini ham ta’sir ko‘rsatdi.

Ammo, mazkur omillar salbiy ta’sirlarga ham ega bo‘lib, ularni kamaytirish yoki bartaraf etish, ya’ni oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining o‘sishi, investitsiya mablag‘larini keng jalb qilish, soliq va boj tariflarini tartibga solish, mavjud xom ashyo bazasini rivojlantirish va kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni qo’llash va mahsulot sifatini oshirish, texnik reglamentni optimal tarzda ishlab chiqish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va yangi bozorlarga chiqish kabi omillar ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi (2-rasm).

Ma’lumki, har bir davlat uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash murakkab, ko‘p qirrali va ustuvor strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, aholini oziq-ovqat bilan ishonchli ta’minlamasdan turib, milliy xavfsizlikni ta’minlash mumkin emas. Shu boisdan, bu borada AQSH, Germaniya, Gollandiya va Belarus kabi xorijiy mamlakatlar tajribalari o‘rganildi. Xorij tajribalardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi +

¹² Muallif ishlanmasi.

oziq-ovqat sanoati kompleksini rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb topildi:



2-rasm. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish omillari¹³

belgilangan parametrlar va mavjud resurslar o'rta sidagi muvozanatni ta'minlash, shuningdek bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan maqsadli rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish;

oziq-ovqat zanjiri tarmoqlarini institutsional jihatdan xar tomonlama qo'llab-quvvatlash hajmini oshirish va ajratilayotgan budget mablag'laridan maqsadli hamda samarali foydalanish;

makro va mikro darajada belgilangan mezon va ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hamda qayta ishlab jarayonlarini muntazam tahlil qilish orqali samarali nazoratni o'rnatish;

agrosanoat majmuasini ilmiy asosda tashkil etishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-innovatsion texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish asosida tarmoq samaradorligiga erishish va boshqalar.


Mazkur tajribalardan kelib chiqib fikrimizcha, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi yalpi oziq-ovqat mahsulotlari, aholining real daromadlari, oziq-ovqatga bo'lgan talab, ichki bozor sig'imi, shu jumladan import va eksport, makro va mikroiqtisodiy barqarorlik darajasi, institutsional qo'llab-quvvatlash holati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari hajmiga bog'liq (3-rasm).

Shu bilan birga mamlakatda ilm-fanning rivojlanganlik darajasi, ilmiy-texnologik innovatsiyalarning yaratilishi va amaliyatga qo'llanilishi, sohaga yo'naltirilayotgan ichki-tashqi investitsiyalar hamda ularning maqsadli va samarali ishlatilishi, oziq-ovqat mahsulotlari importi va eksporti kabi omillar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda oziq-ovqatni qayta ishlash sanoati holati va uning iqtisodiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qayta ishlash sanoatining o'rni va uning

¹³ Muallif ishlanmasi.

tarkibiy tuzilishi o‘rganilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari sanoatining samaradorlik ko‘rsatkichlari va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda eksport-import mahsulotlarining roli tahlil qilinib, ularning ta’siri baholangan.



3-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning kompleks chora-tadbirlarni amala oshirish mexanizmi¹⁴

Bugungi kunning global muammolaridan biri bo‘lgan – ochlik va oziq-ovqat xavfsizligi mamlakatimizni ham chetlab o‘tmagan. Xususan, 2022 yilda O‘zbekiston aholisining 2,5 foizidan kamroq qismi muntazam va yetarli ovqatlanish imkoniyatiga ega emaslar. Boshqacha aytganda, ular ochlik va oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelganlar. E’tiborli jihat shundaki, mamlakatimizda mazkur muammoga duch kelganlar soni o‘tgan yillarga nisbatan kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, ularning jami alohi soniga nisbatan ulushi 2001 yilda 18,0 foiz, 2010 yilda 5,8 foizni va 2012-2022 yillarda 2,5 foizdan kamroqni tashkil etgan. Ammo, bu tendensiyalar mamlakatimiz (jahonga nisbatan) kafolatgangan “barqaror oziq-ovqat tizimi”ga ega ekanligini ko‘rsatmaydi.

FAOning ta’kidlashicha, oziq-ovqat tizimining barqaror yoki barqaror emasligini ko‘rsatadigan uchta asosiy ko‘rsatkich mavjud¹⁵:

- iqtisodiy barqarorlik - bu hamma joyda foydali;
- ijtimoiy barqarorlik - bu jamiyat uchun keng ko‘lamlı foyda keltiradi;
- ekologik barqarorlik - bu tabiiy muhitga ijobiy yoki “neytral” ta’sir ko‘rsatadi.

¹⁴ Muallif ishlansasi.

¹⁵ <https://www.fao.org/3/ca2079en/CA2079EN.pdf>

Demak, oziq-ovqat sanoati nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Balki, mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy tarkibi qiyidagilardan iborat:

1) Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlar);

2) Sanoat asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va iste'molga yaroqli vositalar: ayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari;

oziq-ovqat qo'shimchalari va biokimyoviy vositalar.

Oziq-ovqat sanoatining asosiy xom ashyo bazasi bu – dehqonchilik va chorvachilik (baliqchilik) mahsulotlari hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, 2024 yilda respublika bo'yicha 8 877,7 ming tonna don va dukkakli don ekinlari, 3716,9 ming tonna kartoshka, 11994,2 ming tonna sabzavotlar, 2 683,8 ming tonna oziqbop poliz ekinlari, 3238, ming tonna mevalar va rezavorlar hamda 1731,7 ming tonna uzum mahsulotlari yetishtirilgan. Shuningdek, 2942,5 ming tonna so'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda), 12443,8 ming tonna sut, 8864,5 mln. dona tuxum va 15931,7 tonna asal mahsulotlari yetishtirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmi dinamikasi¹⁶

№	Mahsulotlar	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
1	Don va dukkakli don ekinlari, ming tonna	7 504,3	8 173,5	7 636,0	7 634,6	7 990,5	8 426,6	8 877,7
2	Kartoshka, ming tonna	1 694,8	2 586,8	3 143,8	3 285,6	3 443,2	3 574,1	3 716,9
3	Sabzavotlar, ming tonna	6 262,4	9 390,0	10 431,4	10 850,2	11 162,9	11 553,7	11 994,2
4	Oziqbop poliz, ming tonna	1 182,4	1 853,6	2 134,4	2 285,3	2 420,7	2 553,5	2 683,8
5	Mevalar va rezavorlar, ming tonna	1 676,3	2 467,9	2 812,6	2 852,6	2 999,3	3 121,7	3 238,8
6	Uzum, ming tonna	979,3	1 518,2	1 606,9	1 695,3	1 760,6	1 737,6	1 731,7
7	So'yish uchun yetishtirilgan mollar va parran-dalar (tirik vaznda), ming tonna	1 461,4	2 033,4	2 519,6	2 635,1	2 725,9	2 833,3	2 942,5
8	Sut, ming tonna	6 169,0	9 027,8	10 976,9	11 274,2	11 627,2	11 968,7	12 443,8
9	Tuxum, mln. dona	3 061,2	5 535,4	7 781,2	7 788,4	8 129,2	8 487,5	8 864,5
10	Asal, tonna	3 171,9	10 157,0	13 57,8	14 066,9	14 700,4	15 620,6	15 931,7

Tahlillarga ko'ra, 2010-2024 yillar mobaynida mamlakatimizda dehqonchilik va chorvachilik (baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish barcha yo'nalishlar bo'yicha oshgan. Jumladan, 2024 yilda (2010 yilga nisbatan) don va dukkakli don ekin mahsulotlari 1373,4 ming tonnaga, kartoshka mahsuloti 2022,1 ming tonnaga,

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

sabzavotlar 5731,8 ming tonnaga, oziqbop poliz ekinlari mahsulotlari 1501,4 ming tonnaga, mevalar va rezavor mahsulotlari 1562,5 ming tonnaga, uzum mahsulotlari 752,4 ming tonnaga, so'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda) 1481,1 ming tonnaga, sut mahsulotlari 6274,8 ming tonnaga, tuxum 5803,3mln. donaga hamda asal mahsulotlari 12759,8 tonnaga oshgan.

2010-2024 yillar mobaynida o'rtacha hisobda yillik yetishtirilgan mahsulotlar hajmlari, xususan don va dukkakli don ekin mahsulotlari 7671,9 ming tonna, kartoshka mahsuloti 2701,4 ming tonna, sabzavotlar 9368,5 ming tonna, oziqbop poliz ekinlari mahsulotlari 1884,2 ming tonna, mevalar va rezavor mahsulotlari 2490,7 ming tonna, uzum mahsulotlari 1476,6 ming tonna, so'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda) 2178,8 ming tonna, sut mahsulotlari 9455,0 ming tonna, tuxum 6082,3 mln. dona hamda asal mahsulotlari 10362,3 tonnani tashkil etgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda respublika bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmi 747631,2 mlrd. so'm (jami sanoat mahsulotlarining 84,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 65174,7 mlrd. so'm (jami sanoat mahsulotlarining 9,9 % yoki ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlarining 11,8%) hamda ichimliklar ishlab chiqarish hajmi 17968,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2023 yilda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalari tomonidan 31187,5 ming l. (100% spirt) aroq, 1051,2 ming l. (100% spirt) uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingen spirt nastoykalari, 262991,1 ming l. pivo, 162,9 tn. yangi yoki muzlatilgan go'sht, 1128 ming tn. yumshoq bug'doy va spelta uni, 7646,8 tn. makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar, 1155,2 tn. boshqa guruhlarga kiritilmagan, uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari, 9611,1 tn. quyultirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 %dan yuqori sut va qaymoq, 1633,7 tn. pishloq va tvorog, 138718,3 tn. o'simlik yog'i (tozalangan) hamda 32015,4 tn. margarin va spredlar ishlab chiqarilgan.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023 yilda (2016 yilga nisbatan) aroq-25803,8 ming l. (100% spirt)ga, yumshoq bug'doy va spelta uni -184,1 ming tn.ga, makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 9464,3 tn.ga hamda o'simlik yog'i (tozalangan) -57398,1 tn.ga kamayib ketgan. 2023 yil yanvar-dekabr oylari mobaynida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi sanoat tarmog'ida 187818,7 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan sanoatda 100639,8 mlrd. so'm hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 6522,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Tahlillarga ko'ra, 2010-2024 yillar mobaynida yillik o'rtacha hisobda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi sanoat tarmog'ida 54809,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 2023 yilda qariyb 38,7 baravarga oshganligi kuzatilgan. Shuningdek, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi yillik o'rtacha hisobda ishlab chiqaradigan sanoatda 28433,3 mlrd. so'm, 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 43,1 baravarga oshgan. Huddi shunday oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida asosiy kapitalga

o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi yillik o‘rtacha hisobda 2215,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 29,0 baravarga oshgan.

2010-2024 yillar mobaynida sanoat tarmog‘ida yillik o‘rtacha asosiy vositalar qiymati (yillik o‘rtacha hisobda) 172077,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 18,9 baravarga oshgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida yillik o‘rtacha asosiy vositalar qiymati (yillik o‘rtacha hisobda) 9204,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 12,0 baravarga oshganligi kuzatilgan.


2-jadval

Oziq-ovqat sanoati mahsulotlari tarkibi¹⁷

Maxsulotlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aroq, ming 1 100% spirt	56991,3	57706,4	57920,1	50923,3	53726,8	40119,8	42445,5	31187,5	31325,2
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, ming 1 100% spirt	773,3	792,2	800,8	976,5	994,5	756	1022,1	1051,2	1092
Pivo, ming 1	222271	185773	187413	207016	232670	232690	217299	262991	273096,3
Yangi yoki muzlatil-gan go‘sht, tn	161,2	126,7	94,3	64	171,2	198,1	231,9	162,9	132,3
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tn	1312,1	1422	1465,9	1486,1	1833,9	1813,4	1690,8	1128	996,3
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar, tn	17111,1	18544,7	12650,1	5022,6	1607,8	976,2	15858,5	7646,8	9852,1
Milliy non (yopgan non), tn	854,6	860,9	705,6	843,4	555,9	72	4,5		
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari, tn	461,7	541,4	560,3	646,3	573,1	586	639,4	1155,2	1482,4
Quyultirilmagan va shakar qo‘silmagan, yog‘liligi 6%dan yuqori sut va qaymoq, tn	482,4	508	530,7	379,8	313,3	4802,9	6241,8	9611,1	11672,6
Pishloq va tvorog, tn	209,4	172,5	162	153,2	179,5	109,9	2055	1633,7	1913,1
O‘simlik yog‘i (tozalangan), tn	196116	207874	185106	159473	161407	146169,7	129860	138718	119382,3
Margarin va spredlar, tn	9853,4	8750	6878	10223,3	28910,4	26127,2	27198,9	32015,4	32831,1

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Tahlillarga ko‘ra, 2010-2024 yillar mobaynida sanoat tarmog‘ida band bo‘lganlar soni (yillik o‘rtacha hisobda) 1765,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, ularning soni 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 1,1 baravarga oshgan. Huddi shunday, shu davrda ishlab chiqaradigan sanoatda band bo‘lganlar soni (yillik o‘rtacha hisobda) 1521,5 ming kishini tashkil etib, bu 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 1,2 baravarga oshgan. Shuningdek, mazkur davrda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida band bo‘lganlar soni (yillik o‘rtacha hisobda) 95,5 ming kishi tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2023 yilda (2010 yilga nisbatan) 1,3 marta oshgan.



4-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat tarmog‘i asosiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish sur’ati¹⁸, marta (2010 yilga nisbatan)

Demak, 2023 yilda sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi 3,5 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni (1 mlrd. so‘m investitsiyaga 3,5 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari to‘g‘ri kelgan) tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich ishlab chiqaradigan sanoatda 5,5 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 10,0 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2023 yilda sanoat tarmog‘ida asosiy vositalar samaradorligi 1,4 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni (ya’ni, 1 mlrd. so‘m asosiy vositalarga 1,4 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari to‘g‘ri kelgan) hamda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida asosiy vositalar samaradorligi 3,1 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023 yilda sanoat tarmog‘ida mehnat unumborligi 358,6 mlrd. so‘m/ming kishini (ya’ni, sanoatda band bo‘lgan ming kishiga 358,6 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari to‘g‘ri kelgan) tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich ishlab chiqaradigan sanoatda 335,7 mlrd. so‘m/ming kishini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 584,0 mlrd. so‘m/ming kishini tashkil etgan (3-jadval).

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, har qaysi resurs samaradorligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida (umumiy sanoat va ishlab chiqaradigan sanoatga nisbatan) yuqori ekanligi kuzatildi. Jumladan, 2023 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

samaradorligi 10,0 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu sanoat tarmog‘iga nisbatan (+) 6,5 mlrd. so‘m/mlrd. so‘m va ishlab chiqaradigan sanoatga nisbatan esa (+) 4,5 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mga ko‘p demakdir. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida asosiy vositalar samaradorligi (+) 3,1 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mni tashkil etib, bu sanoat tarmog‘iga nisbatan (+) 1,7 mlrd. so‘m/mlrd. so‘mga ko‘p. Shuningdek, 2023 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida mehnat unumborligi 584,0 mlrd. so‘m/ming kishini tashkil etib, mazkur ko‘rsatkich sanoat tarmog‘iga nisbatan (+) 225,0 mlrd. so‘m/ming kishi va ishlab chiqaradigan sanoatga nisbatan esa (+) 248,0 mlrd. so‘m/ming kishiga ko‘pdir.

3-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat tarmog‘i resurslari samaradorligi tendensiyasi¹⁹

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Sanoat tarmog‘ida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi, mlrd. so‘m	65,1	21,5	23,7	3,2	1,5	24,5	12,3
<i>Shu jumladan:</i>	86,1	27,3	29,0	3,5	1,5	22,1	12,4
Ishlab chiqaradigan sanoatda	100,8	31,8	34,5	3,5	1,5	23,1	11,9
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida	133,2	39,4	41,5	3,8	1,5	24,2	13,7
Sanoat tarmog‘ida asosiy vositalar samaradorligi, mlrd. so‘m	175,9	47,1	48,4	3,9	1,4	23,3	14,3
<i>Shu jumladan:</i>	219,3	53,2	55,2	4,1	1,4	29,7	14,7
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida	251,4	60,7	62,1	3,5	1,2	34,4	10,2
Sanoat tarmog‘ida mehnat unumdarligi, mlrd. so‘m /ming kishi	254,0	75,4	81,5	2,6	1,3	19,7	9,9
<i>Shu jumladan:</i>	264,2	118,7	130,5	2,2	1,4	9,4	7,4
Ishlab chiqaradigan sanoatda	330,9	158,0	177,1	2,7	1,5	9,5	5,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida	371,5	191,5	203,8	2,8	1,3	9,5	5,5
<i>Shu jumladan:</i>	437,4	227,9	242,2	2,9	1,3	9,9	7,2
Ishlab chiqaradigan sanoatda	520,8	282,5	305,6	3,0	1,3	13,7	6,8
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida	584,0	335,7	358,6	3,1	1,4	10,0	5,5
							3,5

